

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) magistratura
mutaxassisligining malaka talablari*

2023-yil 08-iyul
No. 344

Toshkent – 2023

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;
- Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti.

TASDIQLANGAN BA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil

“ ” dagi — - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/p		bet
1.	<i>70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi.....</i>	5
1.1	Qo‘llanish sohasi.....	5
1.1.1	<i>70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanilishi.....</i>	5
1.1.2	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	5
1.2	<i>70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarini tasnifi.....</i>	5
1.2.1	<i>70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....</i>	5
1.2.2	<i>70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....</i>	6
1.2.3	<i>70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	6
1.2.4	<i>70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy vazifalari.....</i>	6
2.	<i>70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</i>	8
2.1	Umumi kompetensiyalar.....	8
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	9
2.3.	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va ilmiy faoliyatga qo‘yiladigan talablar.....	9
2.3.1.	<i>Kvalifikatsiya</i>	10

2.3.2. 70412501 – Marketing (<i>paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat</i>) mutaxassisligi 10 uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....
2.3.3 70412501 – Marketing (<i>paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat</i>) mutaxassisligi 10 bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....
Bibliografik ma’lumotlar..... 12
Kelishuv varag‘i..... 14

1. 70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) magistratura mutaxassisliginiig umumiy tavsifi

70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat)** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv hodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o‘qituvchilar;

- magistratura mutaxassisligining o‘kuv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari;

70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) magistratura mutaxassisligi biznes va boshqaruv sohasidagi mutaxassislik bo‘lib, barcha ta’limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, davlat, aksionerlik va hususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida marketing faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks

masalalarini hal etish, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini rivojlantirishda marketingni qo'llash, istiqbolni belgilash, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70412501 – Marketing (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta'lif, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lif muassasalarida pedagogik faoliyat;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lif muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- real sektor korxonalarining marketing strategiyasini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi;
- davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati subyektlarining talabini ta'minlash, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohasidagi marketing targ'ibot ishlarini ta'minlash jarayonlari;
- davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida marketing faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonlari;
- marketing sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va hodisalarini, mikro va makro iqtisodiy makonda marketing tadqiqotlari va ularning tahlili jarayonlari.

1.2.3. 70412501 – Marketing (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- *ilmiy tadqiqot faoliyat;*
- *pedagogik faoliyat;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
- *axborot tahliliy faoliyati;*
- *tadbirkorlik faoliyati.*

1.2.4. 70412501 – Marketing (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:

70412501 – Marketing (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofik magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar hakidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirot etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

Pedagogik faoliyatida:

- oliv ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv- metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:

- marketing reja, hisob-kitob xujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, marketing sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo‘yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

- marketing shartnomalarni tuzish uchun zarur bo‘lgan xujjatlarni to‘plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarining tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni rejalashtirish va amalga oshirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlarini marketing monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

- bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

- tashkilot, korxona va ularning marketing bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, marketing hodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning marketing faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, hukuqiy hamda meyoriy-huqukiy xujjatlar tayyorlash;

- qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- marketing ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Axborot tahlily faoliyatida:

- strategik rivojlanishga oid boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash va tahlil kilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki xujjat aylanishi tizimini ishlab chikish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalari samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

- korxona, tashkilotlarning kelgusida rivojlanish strategik variantlari samaradorligini baholash;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznes-rejalarni ishlab chiqish, faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish.

2. 70412501 – Marketing (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida assosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta'lif sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarining marketing bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, marketing hodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- to'qimachilik va yengil sanoati korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda marketing tamoyillarini qo'llay bilishi;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- marketing loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarida marketingni tashkil etish, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;
- to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini marketing rejalarini ishlab chiqish, ushbu sohada yechilayotgan ilmiy muammolarnint konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadkiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etishni bilish;
- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta'minlaydigan fanlar va ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.

Magistratura mutaxassisligi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, ilmiy amaliyotlarni (stajirovka) o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo‘lmagan fanlar.

Tanlov fanlari ta’lim oluvchilar qo‘shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishini, innovasion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo‘lib, har bir tanlov fanlari jamlamasiga ikitadan kam bo‘lmagan o‘rnini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O‘quv rejadagi tanlov fanlari majmuasining umumiy soni 3 tagacha bo‘lishi mumkin.

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyat 4-semestrda o‘tkaziladi. Bunda soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta’minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyatga yuborilgan magistratura talabasi o‘quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko‘zda tutiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: marketolog iqtisodechi, tadqiqotchi pedagog

2.3.2. 70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklari bo‘yicha soatlar va kreditlar

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1440	48
Tanlov fanlar	360	12
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiylukda yuzqoldireshuv hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1440	48	
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	MFO·M1102	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	180	6	1
1.03	AXT1102	Amaliy xorijiy til	180	6	1
1.04	PTPM1204	Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat	180	6	2
1.05	IJHM11208	Ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish	240	8	1,2
1.06	MERCH1104	Merchendayzing	180	6	2
1.08	NEYR1104	Neyromarketing	120	4	1
1.09	XALM1306	Xalqaro marketing	180	6	3
2.00		Tanlov fanlari	360	12	
		Ilmiy faoliyat	1800		

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'kib o'rganish natijalari, o'kuv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, marketing, to'qimachilik sanoati, yengil sanoat, raqobat, raqobatbardoshlik, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari, huquq-tartibot, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chikarish, tashkiliyboshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ekspertiza, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariY.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilar

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti



Rektor

D.Vaxabov

2023 yil “ 15 ” oz

m.o’.

KELISHILDI:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan
va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor SH.Yakubov

2023 yil “ 7 ” oz

m.o’.

“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi

Rais o‘rinbosari M.Jumaniyozov

2023 yil “ 14 ” oz

m.o’.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor

K.Sharipov

2023 yil “ 15 ” oz

m.o’.

“NURAESHON-NUR” xususiy korxonasi

Direktor M.Tashmuxamedova

2023 yil “ 14 ” oz

m.o’.

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi
bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy
ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“15” 05 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti rektori D.Vaxabov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori prof. K.Sharipovlar birligida TTesIda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-sen farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-sen, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sen, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sen, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2023/2024 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-4359-sen Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa meyoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan. Mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa xujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatalgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent to‘qimachilik va yengil
sanoat instituti rektori**

 **D.Vaxabov**

**Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti rektori, professor**

 **K.Sharipov**



**Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida ishlab chiqilgan 70412501 –
Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo‘yicha
magistrlar tayyorlashning tayyorlarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga
qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga**

TA Q R I Z

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta’minalash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasি O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”, qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli buyrug‘i, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasи kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, magistrlar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’milovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

70412501 – Marketing (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasи xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlesh, yuksak kasbkor malakasi shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, magitrlarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilari to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida iqtisodiyotni oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarni ishlab chiqishda ta’limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o‘ziga xoslikni saqlash va jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarining tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlар uchun taqsimoti

bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyatda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'limga muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 70412501 – Marketing (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'limga o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi.

Toshkent davlat iqtisodijot universiteti rektori, professor

K.Sharipov

